



UO‘K: 792.02:37.018(575.1)

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TEATR SAN‘ATINING O‘RNI**РОЛЬ ТЕАТРАЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ****THE ROLE OF THEATRICAL ART IN INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUTH IN NEW UZBEKISTAN**Dehqonov Rovshan Davlataliyevich 

Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yangi O‘zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va teatr san‘atini yuksaltirishda falsafiy omillar balki inson hayotiga, ayniqsa, jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta’sir etish jarayoni ko‘plab ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san‘ati negizida estetik dunyoqarashni rivojlantirish hissi bilan, go‘zallikni faqat shaxsiy tajriba sifatida ko‘rmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida yoshlarning milliy madaniyatimiz va urf-odatlar bilan tanishtirib, millatga bo‘lgan sevgini uyg‘otish natijasi va yangi g‘oyalari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье во многих научных исследованиях исследуются философские факторы повышения социальной активности молодежи и развития театрального искусства на этапе социального развития нового Узбекистана, а также процесс влияния на жизнь человека, особенно на устойчивое развитие общества. В повышении социальной активности молодежи на основе театрального искусства с чувством развития эстетического мировоззрения, рассматривая красоту не только как личный опыт, но и знакомя молодежь с нашей национальной культурой и традициями в социальном развитии общества, пробуждая любовь к нати, освещены результаты и новые идеи.

Abstract

In this article, philosophical factors in increasing the social activity of youth and the development of theatrical art at the stage of social development of the new Uzbekistan, as well as the process of influencing human life, especially the sustainable development of society, are investigated in many scientific studies. In increasing the social activity of young people, with a sense of developing an aesthetic worldview based on theatrical art, not only seeing beauty as a personal experience, but also introducing young people to our national culture and traditions in the social development of society, the results and new ideas of awakening love for the nation are highlighted.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-falsafiy, shaxs, barkamol inson, san‘at, ruhiy, axloqiy, madaniy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot.

Ключевые слова: социально-философское, личность, гармонично развитый человек, искусство, духовное, нравственное, культурное развитие, социальное развитие.

Key words: socio-philosophical, personality, well-rounded individual, art, spiritual, moral, cultural development, social progress.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarda mustaqil faoliyat, yangi davrga mos keladigan ijtimoiy-ma’naviy xislatlarni, xususan, globallashuv sharoitida muhim ahamiyat kasb etadigan milliy o‘zlikni anglashning nazariy-metodologik va amaliy asosini tashkil qiladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligi falsafiy jihatdan inson va jamiyat o‘rtasidagi dialektik o‘zaro ta’sirning mahsuli hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida jismonan va ruhan sog‘lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a’zosi, uyg‘un rivojlangan shaxs sifatida etishib chiqish jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar majmuini yaratish sari maqsadli yo‘nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo‘lidir deya e’tirof etish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'kidlash joizki, Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati ham aynan yoshlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan, 2016 yil 14-sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun edi"[1.5,423.]. Ijtimoiy faollik mohiyat e'tibori bilan insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi tabiati va yashayotgan ijtimoiy muhit o'rtasidagi uzviy aloqasini aks ettiradi. Ijtimoiy falsafada inson, "faol mavjudot" sifatida talqin qilinadi. Bu faollik, avvalo, insonning ongli, maqsadga yo'naltirilgan harakatida, ijtimoiy qadriyatlarni anglash va ularni amalda ifodalashida namoyon bo'ladi. Shu boisdan ijtimoiy faollik insonning **erkinlik, mas'uliyat va burch** kabi tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Jahonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda Teatr san'atini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatdan insoniyatning madaniy merosini muhim strategiyalarini amalga oshirishda asosiy qismi bo'lib kelgan. Teatrning jamiyatda ijtimoiylashuvi, ya'ni uning ijtimoiy taraqqiyotidagi o'rnini, ahamiyati va rivojlanishi ko'plab omillar bilan bog'liq. Ushbu jarayon asrlar davomida turli madaniyatlar va xalqlar orasida o'zgarib, takomillashib rivojlanib kelgan. Teatrning ilk namunalari qadimiy ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari Misr va Gretsiya teatr festivallarida (masalan, Dionis festivalida) o'tkazilgan ruhiy-ma'naviy tadbirlar bo'lib, bu tadbirlar yoshlarning jamiyatda manaviy va madaniy hayotning ajralmas bir bo'lagi bo'lgan. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida, teatr san'atini ro'yobga chiqarish, jamiyatdagi muhim masalalarni muhokama qilish, hissiyotlarini ifodalash ularni birlashtirish muhim dolzarb ahamiyat ega.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yangi O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini va dunyoqarishni yuksaltirishda "ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib"[2.3.], "bugungi murakkab zamonda yoshlarni jismoniy va ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash biz uchun g'oyat muhim vazifa bo'lib"[3.250.], nafaqat shaxs sifatida rivojlanishga yordam beradi, balki jamiyatning umumiy madaniyati va axloq-odobini yuksaltiradi. Shuning uchun ta'lim tizimida ijtimoiy falsafa fanlarini yanada kuchaytirish zarurati orqali yosh avlod go'zallikka intilish yo'lida muvaffaqiyatli qadam qo'yishi mumkin bo'ladi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda teatr san'ati negizida estetik dunyoqarashni rivojlantirish hissi bilan, go'zallikni faqat shaxsiy tajriba sifatida ko'rmasdan, balki jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida yoshlarning milliy madaniyatimiz va urf-odatlarini bilan tanishtirib, millatga bo'lgan sevgini uyg'otish natijasida yangi g'oyalarni shakllantiradi.

Yoshlarning turli madaniyatlar, uslublar va janrlarga qiziqishi orqali, ular globalizatsiya jarayonida turli xil san'at ko'rinishlarini, jumladan, an'anaviy va zamonaviy teatr san'atini birlashtirgan holda yangilashga zamin yaratadi.

Yangi O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyot bosqichida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va teatr san'atini rivojlantirishda falsafiy omillarni inson hayotiga, ayniqsa, jamiyatning barqaror rivojlanishiga ta'sir etish jarayoni ko'plab sharq va g'arb olimlarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan. G'arbda, teatr san'atini yuksaltirish bo'yicha bir qancha tadqiqotchilarning olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. "Zamonaviy teatrdan "an'ana" uzoq vaqtdan beri asosiy atama rejissura - Efros badiiy teatr maktabi, shuningdek, parallel ravishda "an'ana"ni Meyerxold, teatrlari deb atash mumkin. Ba'zilar an'anani ikonka sifatida hurmat qilishadi va uzoq vaqtdan beri o'rnatilgan qonunlardan bir qadam orqaga chekinishni xohlamaydilar. Tomoshabinlar G'arbiy, Sharqiy va Amerika teatrlarini ko'rishga muvaffaq bo'lishdi. Ma'lum bo'lishicha, dunyo madaniyatida mavjud bo'lganidan o'nlab marta ko'proq teatr san'atini yaratish usullari mavjud".[4.67.] Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va teatr san'atini yuksaltirishda zamonaviy jamiyatdagi muloqoti, bir-biriga o'zaro ta'siri, fuqarolik jamiyati sharoitida ularning munosabatlari dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Masalan S.Fridrix, K.Molyer, V.Shekspir, Ibsen, Brext, O'nil kabilar umuminsoniy g'oya va ezgu intilishlarni o'zlarida singdirish orqali erishishlari mumkinligi, jahon sahna tarixida mo'tabar sahifa ochgan ijod namunasi bo'ldi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasida, yoshlarning teatr san'ati va uning qiymatlarni qanday qabul qilishini tushunishga yordam beradi degan g'oyalari ilgari suriladi. Bu borada yosh avlod, estetik tajribalarni qanday shakllantirishni o'rganadi. Erik Erikson - Eriksonning inson rivojlanish bosqichlari nazariyasi yoshlarning shaxsiyati va estetik munosabatlarini qanday shakllantirishi haqida fikr yuritadi, ayniqsa, identifikatsiya va o'z-o'zini anglash davrida deya ta'kidlaydi. Howard Gardner - Gardnerning ko'p qobiliyatlar nazariyasi yoshlarning san'atga bo'lgan qiziqishini va turli estetik ifodalarni qanday boshqarishini tahlil qilishga yordam beradi deya izohlaydi. Arthur Danto - Danto san'at nazariyasi orqali yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish uchun kerak bo'lgan estetik tajribalarni

ILMIY AXBOROT

chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa ular san'atni qanday baholashi va qabul qilishi bilan bog'liqligi to'g'risida fikr yuritadi.

MUHOKAMA

Qadimgi Yunon faylasufu "Aristotel insonning mohiyatida hayvoniy (biologik) va siyosiy (ijtimoiy) boshlang'ich asos borligini inobatga olib, uni "siyosiy hayvon" - degan edi. Munozara, baxslarga sabab bo'lgan mulohaza shundan iboratki, o'sha ikki boshlang'ich asosning qay biri inson faoliyati, his-tuyg'ularini belgilashda asosiy rol o'ynaydi? Insonda tabiiylik (biologik) va ijtimoiylikning o'zaro aloqadorligi qanday sodir bo'lishi"[5.182.] haqida ta'riflagan bo'lsa, yana bir faylasuf Gegel inson faoliyatini "**ruhning o'z-o'zini ro'yobga chiqarish jarayoni**" deb talqin etgan. Shu ma'noda, ijtimoiy faollik inson borligining zaruriy ko'rinishi sifatida qaraladi. Inson o'z mohiyatini faqat faoliyat orqali namoyon eta oladi.

Ijtimoiy faollik - bu **shaxs va jamiyat o'rtasidagi mavjudlik aloqasidir**. Inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, uning faoliyati doimo ijtimoiy tizim ichida shakllanadi. Shu sababli insonning har bir harakati, garchi u shaxsiy tusda bo'lsa ham, ijtimoiy mazmunga ega bo'ladi.

"Mamlakatimiz yoshlarini san'atning turli sohalariga bo'lgan qiziqishlarini, muxlislik madaniyatini har tomonlama rag'batlantirib borish, xalqimiz turli qatlamlari orasida kino, teatr san'atining ahamiyatini yuksaltirish, ommaviyligini ta'minlash borasidagi tizimli faoliyatni yo'lga qo'yish"[6.4,5.] muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekistonda ijtimoiy faollikning aksiologik jihati o'ziga xos mazmun kasb etmoqda. Chunki bu davrda yoshlar nafaqat ijtimoiy hayotda faol ishtirok etmoqda, balki **milliy g'oya, ma'naviy tiklanish, fuqarolik burchi** kabi qadriyatlarni o'z faoliyatining markaziga qo'yishmoqda. Shu bilan birga, ularning faolligi milliy o'zlikni saqlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va jamiyatda ma'naviy muhitni yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-falsafiy jihatdan olganda, aksiologik faollik - bu insonning "**yaxshilik**", "**adolat**", "**burch**" kabi tushunchalarga nisbatan ongli munosabatidir. Bu munosabat shaxsni ijtimoiy jihatdan etuk, ma'naviy jihatdan mas'uliyatli, va erkin tafakkur sohibi sifatida shakllantiradi.

Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish teatr san'ati ijodkorligi, yoki san'atda amalga oshirishlari mumkin. Bular faqat bir necha misollar bilan bog'liq. G'arb olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bunga yaqqol misol bo'lib, bu bo'yicha ko'plab boshqa fikrlarni ham qo'shish mumkin. Teatr san'atini rivojlanishida, yoshlar bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatlari negizida ijobiy jihatlari namoyon bo'ladi va bu jihatlar ilmiy nuqtai nazardan juda muhim, chunki ushbu jarayon kelajakdagi avlodning ruhiyatiga, madaniy va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-shaxsiy, ham tashqi - ijtimoiy nuqtai nazaridan boshqarilib boriladi"[7.139.].

Teatr san'atining ahamiyati va uning inson hayotidagi rolini o'rganishda keng qamrovi nazariyalar va amaliyotlarni ishlab chiqqan. Ushbu nazariyalarda teatr san'ati, insonning ruhiy, axloqiy va madaniy rivojlanishida muhim omil deb bilishadi. Masalan Al-Farobi, Ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Omar Xayyom, Al-Ghazali, Sadiy Shirazi, bu olimlar Sharq san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lib, ularning fikrlari hozirgi kungacha muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Yangi O'zbekistonda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar qatorida ijtimoiy sohada, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ulkan ishlarni ham e'tirof etib o'tish zarur".[8.325.] Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iste'dodli yoshlarni izlash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar. Masalan, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarning iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi ayniqsa, ahamiyatga molikdir. Ta'kidlash joizki, ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorli sohalaridagi iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rahbatlantirib borish, ularning turli sog'lom tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifalari bu tashkilotning mazkur yo'nalishdagi dolzarb vazifalaridan biri qilib belgilangan.

"Yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash - oliy maqsaddir"[9.3.], deb aytilgan fikrlari muhim ahamiyat ega hisoblanadi.

Zero bugungi kunda aksariyat rivojlangan davlatlarning mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillarga asoslanadi. Ularda tinchlik va taraqqiyot, inson haq-huquqlari va erkinligi,

milliy va diniy totuvlik g'oyalari ustivordir. Bu tamoyillarga asoslangan ezgu g'oyalar umuminsoniy manfaatlar, bashariyatning asriy orzusi bo'lgan yorug' kelajak uchun xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston yoshlari forumida ta'kidlab o'tganidek, "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'rganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo'shadilar"[10.69.]. Ma'lumki, "milliy o'z-o'zini anglash- har bir millat (elat)ning o'z-o'zini real sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarning egasi, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib etishga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi"[11.160.].

Inson faolligi harakat, faoliyat, xulq tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat-inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish vatakomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Ijtimoiy faollik kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda "ijtimoiy faollik"-shaxsning har sohadan xabardorlik, komillik darajasini ko'rsatuvchi mezon, deyish mumkin. Ijtimoiy faolikka intilib yashashning o'zi g'oya hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki shaxs har tomonlama shakllangan komil inson qilib tarbiyalash, milliy g'oyani yuksak his-tuyg'ular negizida chuqur idrok etish, aniqrog'i yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning san'at olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalari ahamiyatga molik bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asadova Nilufar Yorqinovna. Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosati va uning mohiyati. / Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, Scientific Journal. VOLUME 1 | ISSUE 9. ISSN 2181-1784. SJIF 2021.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Муқаддима. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2023й.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Ўзбекистон” 2022й.
4. Mahmud Rashidov. Teatr san'ati: an'analar, yangiliklar va shaxsni tarbiyalashdagi roli. / Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY. 2025, №1.
5. Zaxriddinbobir Xaydarov. Inson Taraqqiyoti // O'quv qo'llanma: -Namangan -2018.
6. G'aybullayev Otabek Muxammadiyevich.. Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish masalalari. / Yangi O'zbekistonda ma'rifatli shaxs tarbiyasi: muammo va echimlar respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (ikkinchi qism). Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institute. - Toshkent.; 2023.
7. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. –Toshkent; 2002. 1-2 kitob. –B.139.
8. Ijtimoiy faollikka tayangan taraqqiyotga erishishning ma'naviy asoslarir. / To'plam . -Toshkent 2025.
9. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston, ma'rifatli-jamiyat". 9 Sentabr 2021.
10. Ҳикматлар хазинаси. -Toshkent.: Фафур Фулом, 1993.
11. Фалсафа: қомусий луғат: (Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров). –Тошкент.: “Шарқ” нашриёт-матбуот акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2004.